**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**
**“PEDAGOGIKA” KAFEDRASI**

# LOGOPEDIK MASHG’ULOTLARNI REJALASHTIRISH VA TASHKIL ETISH

**fanidan mustaqil ta’limni tashkil etish bo‘yicha**

## USLUBIY KO‘RSATMA

**2024/2025 o’quv yili, kunduzgi ta’lim shakli uchun.**

**Kursi: 4-kurs, Semestr: 7-semestr.**

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | **100000** – Ta’lim |
| **Ta’lim sohasi:** | **110000** – Ta’lim |
| **Ta’lim yo‘nalishilar:** | **60110400** – Maxsus pedagogika (logopediya) |

**NAMANGAN – 2024**

Ushbu uslubiy ko‘rsatma Barcha ta’lim yo’nalishi talabalari uchun mustaqil ta’limini tashkil etish bo’yicha tuzilgan bo’lib, uslubiy ko’rsatmada talabalarni mustaqil ta’limni bajarishlari to’g’risida zaruriy ma’lumotlar berilgan hamda mustaqil ta’lim olishlarida nazariy jihatdan yordam ko’rsatadi.

«Kasbiy pedagogika» fanidan talabalarni mustaqil ta’limini tashkil etish bo’yicha uslubiy ko‘rsatma NamDU pedagogik kafedrasining 2024-yil 27-avgustdagi majlisida muhokama qilingan va Pedagogika fakulteti kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan. Bayonnoma №1

«Kasbiy pedagogika» fanidan talabalarni mustaqil ta’limini tashkil etish bo’yicha uslubiy ko‘rsatma NamDU Pedagogika fakultetining 2024-yil 26-avgustdagi majlisida muhokama qilingan va Universitet Kengashida ko‘rib chiqish uchun tavsiya etilgan. Bayonnoma № 1

«Kasbiy pedagogika» fanidan talabalarni mustaqil ta’limini tashkil etish bo’yicha uslubiy ko‘rsatma NamDU o‘quv-uslubiy kengashining 2024-yil 18-sentabrdagi majlisida muhokama qilingan va foydalanishga tavsiya etilgan. Bayonnoma №1

**Tuzuvchi:** D.Muxtorova NamDU “Pedagogika” kafedrasi o’qituvchisi

## 1. Mustaqil ta’limni tashkil etishning  shakli va mazmuni.

Talaba mustaqil ishi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 20-oktyabrda № 43 raqam bilan hisobga olingan “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar” O‘zbekiston Respublikasining davlat standarti, 2018-yil 8-oktyabrda № 3076 raqam bilan ro‘yhatdan o‘tkazilgan “Oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilar tarkibining o‘quv yuklamasi hamda o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlarini belgilash qoidalari”, 2018 yil 26 sentyabrda № 3069 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish bo‘yicha namunaviy tartib”, NamDU kengashi tomonidan 2024- yil 28-iyunda tasdiqlangan “Namangan davlat universiteti talabalari mustaqil ta’limini tashkil etish tartibi” ga muvofiq ravishda ishlab chiqildi, “Umumiy pedagogika va psixologiya ” fanidan  talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish va ularni baholash  qoidalarini belgilaydi.

Talaba mustaqil ishi – muayyan fandan o`quv dasturida belgilangan bilim, ko`nikma va malakaning ma`lum bir qismini talaba tomonidan fan o`qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o`zlashtirilishiga yo`naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- mavzu yuzasidan tahliliy ma’lumot  tayyorlash;
- aniq mavzu bo‘yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- pedagogic-psixologik masalaga aniq yechim topish va uni tahlil etish;
- muammoli pedagogik vaziyatni tahlil qilish va xulosa chiqarish;
- berilgan mavzuni chuqur o‘rganish va yuqori darajada tahlil qilish;
- pedagogik-psixologik metodikalar orqali tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish;
- seminar mashg’uloti bo’yicha ishlanmalarni tayyorlash;
- test savollari, munozarali vaziyatlar va topshiriqlarni bajarish orqali ilmiy-amaliy loyihalar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish;
- tezislar va ilmiy maqolalar tayyorlash;
- psixologik masalalarni hal etish va ijodiy fikr yuritish;
- fan bo‘yicha seminar mashg’uloti topshiriqlarini bajarish.

O’qitiladigan fanlar bo’yicha o’quv dasturlari va sillabuslarda talabalar mustaqil ishining mazmuni, mohiyati, shakli va xajmi ko’rsatiladi. Talaba mustaqil ishi uchun o’quv

rejada ajratilgan vaqtga mos ravishda har bir fan bo'yicha tashkiliy shakllari, topshiriq variantlari ishlab chiqiladi.

Mustaqil ishni bajarish uchun har bir mustaqil ish yuzasidan fan o'qituvchilari tomonidan talabalarga ko'rsatma va tavsiyalar berib boriladi va o'quv mashg'ulotlarida talabalarga yetkaziladi.

## 2. Mustaqil ta'limning asosiy vazifalari.

1. Talabaga mustaqil ishlashni o‘rgatish;
2. Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish;
3. Ijodiy faoliyatga qiziqishini shakllantirish;
4. Ta'lim olish usullarini egallash;
5. Tushunish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;
6. Mustaqil xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish kiradi.

## 3. Mustaqil ishlarni nazorat qilish va topshiriqlarni qabul qilish shakllari.

Talabalar mustaqil ishini nazorat qilish bevosita fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib boruvchi professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Mustaqil ish topshiriqlarni o'qitiladigan fan xususiyatidan kelib chiqib quyidagi shakllarda qabul qilish tavsiya etiladi.

- ♦ seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik va uy vazifalarini bajarish;
- ♦ pedagogic va psixologik vaziyatlar tuzish;
- ♦ mavzuga doir adabiyotlar tahlili;
- ♦ mavzuga doir referat;
- ♦ taqdimotlar;
- ♦ tarqatma materiallar;
- ♦ test savollari;
- ♦ manbalarni tarjima qilish.

Talabalarni mustaqil ishlarini baholash har bir mustaqil ish mavzusini yakunlab topshirilgandan keyin amalga oshiriladi. Mustaqil ta'limda ko'rsatib o'tilgan topshiriqlarni talaba Universitet, fakultet axborot-resurs markazlari yoki internet tarmoqlaridan foydalangan xolda tayyorlaydi, ma`lumotning qisqacha mazmunini daftarga qayd etib boradi va ko`rsatilgan shakllarda topshiradi.

Talaba har bir mavzu bo`yicha mustaqil ishni bajarib, o`qituvchidan baho oladi, mustaqil ta`lim uchun qo'yilgan baho oraliq nazoratda xisobga olinadi.

## 4. Talabaning har bir mustaqil ishini baholashda quyidagi mezonlarga amal qilish mumkin.

- ♦ Mavzuning yoritilishi.
- ♦ Ilmiy-nazariy manbalar tahlili.
- ♦ Kutubxona va internet ma’lumotlaridan foydalanganligi.
- ♦ Mustaqil ishni yoritishda talabaning og’zaki nutqi.
- ♦ Mustaqil ishga ilmiy jihatdan yondashganligi.

Shuningdek, mustaqil ish yuzasidan talabaning berilgan savollarga og’zaki javob berishi, mustaqil ishni bajarishda yo’l qo’ygan ilmiy, imloviy va uslubiy xatolar ham e’tiborga olinadi.

**5. Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihatlar e`tiborga olinishi lozim.**

- o`qish bosqichi;
- fanning o`ziga xos xususiyati va o`zlashtirishdagi murakkablik darajasi;
- talabaning nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanch bilimi);
- fanning axborot manbalari bilan ta`minlanganlik darajasi;
- talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi.

**6. Talabalar mustaqil ta`lim ishini bajarish davomida quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladilar.**

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o`zlashtirish ko`nikmasi;
- ma`lumotlarni izlab topishning qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- an`anaviy o`quv va ilmiy adabiyotlar, me`yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o`quv adabiyotlari va ma`lumotlar banki bilan ishlash;
- internet tarmog`idan maqsadli foydalanish;
- berilgan topshiriqning oqilona yechimini topish;
- topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashish;
- fanga doir nazariy va amaliy mashg`ulotlar davomida ijodiy fikrlash, mustaqil ishlashga o`rganish, mashqlar bajarish;

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, murakkablik darajasi ko`nikmalar hosil bo`lishiga muvofiq ravishda ortib boradi.

**7. Mustaqil ta'limni amalga oshirish bo'yicha fan o'qituvchisining vazifalari.**

O'qituvchi fan dasturidagi mustaqil ish topshiriqlaridan kelib chiqib talabaga zarur tavsiyalarni berib boradi. Bir fanga tegishli mustaqil ish soatlarini aynan bir shaklda bajarilishiga yo'l qo'ymaydi. Fan uchun ajratilgan mustaqil ish soat xajmi har bir talaba tomonida bajarilishini ta'minlaydi. Talaba tomonidan mustaqil ta'limni belgilangan reja asosida bajarilishi ustidan nazorat olib borib, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy risolalar, ilmiy maqolalar bilan tanishib chiqish bo'yicha topshiriqlar beradi. Muataqil ta`lim ishni bajartirish uchun, asosiy adabiyotlar, ma'lumotlar va mavzu bo'yicha boshqa manbalarni tavsiya etadi va talabalar bilan maslahatlar o'tkazadi.

## 8. Logopedik mashg’ulotlarni rejalashtirish va tashkil etish" fani bo’yicha talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish.

"Logopedik mashg’ulotlarni rejalashtirish va tashkil etish" fani **60110400 –Maxsus pedagogika (logopediya)** ta`lim yo’nalishi kunduzgii ta’lim shakli o`quv rejasiga muvofiq 4-kursning 7- semestrida o‘qitiladi. Fan xususiyatini inobatga olib, mazkur o’quv predmeti bo`yicha talabalar mustaqil ishi bir muncha takomillashtirilgan tartibda tashkil etiladi va talabalar o`zlashtirish darajasiga qarab **<u>quyidagi shakllardan foydalanish ko`zda tutiladi</u>**:

- fanning ayrim mavzularini o`quv adabiyotlari yordamida mustaqil o`zlashtirish, o`quv manbalari bilan ishlash;
- seminar mashg`ulotlarga tayyorgarlik ko`rib kelish;
- turli xil vaziyatlarni tahlil qilish;
- mavzu bo`yicha referat tayyorlab kelish va yoritib berish;
- mavzuga doir adabiyotlar tahlili;
- test savollari, mavziuga doir glossariy tuzish;
- seminar mashg’uloti bo’yicha uy vazifalarini bajarish.
- 

**Mustaqil ish topshiriqlarini muvaffaqiyatli yakunlashlari uchun qo`yiladigan talablar:**

- olingan bilimlarni mustahkamlash, yangi bilimlarni o`zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko`nikma va malakalarni shakllantirish;
- vazifa va topshiriqlarning aniq belgilanishi;
- topshiriqlarni bajarish shakllari bilan tanishtirish;
- maslahat va boshqa yordam turlarining to`g`ri belgilanishi;
- topshirish shakli va baholash mezonini aniq belgilash;
- nazorat vaqti, shakli va turlarini aniq belgilab olish.

Talabalar bilimini baholash kredit modul tizimini qo`llash maqsadlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ish soatlari, ma`ruza va seminar mashg`ulotlar bo`yicha taqsimlanadi va mos ravishda baholanadi. Talabalar mustaqil ishlarini baholash ajratilgan soatlarga mutanosib ravishda amalga oshiriladi.

Ma`ruza soatlari uchun ajratilgan mustaqil ta`lim soatlarida o`quv materiallarini chuqurlashtirilgan tarzda mustaqil o`rganish nazarda tutiladi.

| № | Mustaqil ta'lim mavzulari | Mashg`ulot turi | Berilgan topshiriqlar | Bajarish muddati | Hajmi (soatda) |
|---|---|---|---|---|---|
| **7- semestr uchun** | | | | | |
| 1. | Mavzuga oid maqolalarni o'qib tahlil qilish, o'z fikr va mulohazalarini bayon qilish | Ma'ruza | Mavzu bo'yicha taqdimot yaratish. Adabiyotlar tahlilini amalga oshirish va bukletlar tayyorlash. | 1-hafta | 2 |
| 2. | Logopedik mashg'ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish metodikasi fanining maqsadi, vazifalari, metodlari va usullari bo'yicha sxema tuzish | Ma'ruza | Taqdimot yaratish. Mavzuga doir referat tayyorlash. | 2-hafta | 2 |
| 3. | Logopedik mashg'ulot turlari | Ma'ruza | Tavsirli ma`lumot tayyorlash. | 3-hafta | 2 |
| 4. | Logopedik mashgulot tuzilishi | Ma'ruza | Taqdimot yaratish va glossariy tuzish. | 4-hafta | 2 |
| 5. | Logopedik mashg'ulotni o'tkazish va tahlil qilishga qo'yilgan talablar | Ma'ruza | Ko'rgazmali buklet tayyorlash va glossariy tuzish. | 5-hafta | 2 |
| 6. | Gapirmaydigan bolani tekshirish metodikasini tuzish va tekshirish | Ma'ruza | Tarqatma materiallar tayyorlash.Taqdimot yaratish. | 6-hafta | 2 |
| 7. | Tekshirish bo'limlari asosida xulosalar tuzish va umumiy xulosa qilish | Ma'ruza | Ko'rgazmali buklet tayyorlash. | 7-hafta | 2 |
| 8. | Diagnostok va metodik xulosalarni shakllantirish | Ma'ruza | Tasvirli manbalar tayyorlash va taqdimot yaratish. | 8-hafta | 2 |
| 9. | Nutq kartasini to'ldirish va logopedik xulosa chiqarish | Ma'ruza | Pedagogik texnologiyalar tahlil qilish, mavzuga doir referat tayyorlash. | 9-hafta | 2 |
| 10. | Individual dasturlarning tarkibiy qismlariga metodik tavsifnoma | Ma'ruza | Mavzu bo'yicha taqdimot yaratish. Adabiyotlar tahlilini amalga oshirish va bukletlar tayyorlash. | 10-hafta | 2 |
| 11. | Turli xil nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar uchun korrektsion ishlarning istiqbol va taqvim rejalarini tuzish | Ma'ruza | Taqdimot yaratish. Mavzuga doir referat tayyorlash. | 11-hafta | 2 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 12. | Kuzatilgan individual logopedik mashg'ulot tahlili | Ma'ruza | Tavsirli ma`lumot tayyorlash. | 12-hafta | 2 |
| 13. | Kuzatilgan frontal logopedik mashg'ulot tahlili | Ma'ruza | Taqdimot yaratish va glossariy tuzish. | 13-hafta | 2 |
| 14. | Turli xil nutq nuqsoniga ega bolalar(tanlov asosida) uchun korrektsion ishlarning istiqbol va taqvim rejalarini tuzish | Ma'ruza | Ko'rgazmali buklet tayyorlash va glossariy tuzish. | 14-hafta | 2 |
| 15. | Alaliyali bolalar bila yakka mashg'ulotlar uchun reja-matn tuzish | Ma'ruza | Tarqatma materiallar tayyorlash.Taqdimot yaratish. | 15-hafta | 2 |
| 16. | Bolalar bilan logopedik ishlarni tashkil etishning zamonaviy tendentsiyalari | Ma'ruza | Ko'rgazmali buklet tayyorlash. | 16-hafta | 2 |
| 17. | Logopedik mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazishga turli xil yondashuvlar tahlili | Ma'ruza | Tasvirli manbalar tayyorlash va taqdimot yaratish. | 17-hafta | 2 |
| 18. | Dislaliyada logopedik ta'sirning tayyorlov bosqichi. Logopedik ishda individual dasturlar mazmuni | Ma'ruza | Pedagogik texnologiyalar tahlil qilish, mavzuga doir referat tayyorlash. | 18-hafta | 2 |
| 19. | Dislalaiyaning turli shakllariga ega bo'lgan bolalar bilan ishlash uchun individual logopedik dastur va mashg'ulot ishlanmalari tuzish | Ma'ruza | Mavzu bo'yicha taqdimot yaratish. Adabiyotlar tahlilini amalga oshirish va bukletlar tayyorlash. | 19-hafta | 2 |
| 20. | Dislaliyada nutqqa tovush qo'yish, avtomatlashtirish va farqlash. Individual dastur mazmuni | Ma'ruza | Mavzu bo'yicha taqdimot yaratish. Adabiyotlar tahlilini amalga oshirish va bukletlar tayyorlash. | 20-hafta | 2 |
| 21. | Logoped ishida tarbiyachi va ota-onalar bilan hamkorlik | Ma'ruza | Taqdimot yaratish. Mavzuga doir referat tayyorlash. | 21-hafta | 2 |
| 22. | Rinolalaiyada operatsiyagacha bo'lgan davrda logopedik ishlar | Ma'ruza | Tavsirli ma`lumot tayyorlash. | 22-hafta | 2 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 23. | Rinolalaiyada operatsiyadan keyingi bo’lgan davrda logopedik ishlar | Ma’ruza | Taqdimot yaratish va glossariy tuzish. | 23-hafta | 2 |
| 24. | Dizartriyada logopedik ta’sirning tayyorlov bosqichi. Logopedik ishlarning individual dasturlari mazmuni | Ma’ruza | Ko’rgazmali buklet tayyorlash va glossariy tuzish. | 24-hafta | 2 |
| 25. | Dizartriyada tovushlar talaffuzi va nutqning ritmik-intonatsion tomonini shakllantirish | Ma’ruza | Tarqatma materiallar tayyorlash.Taqdimot yaratish. | 25-hafta | 2 |
| 26. | Birlamchi nutqiy muloqotni shakllantirish. NTR darajali bolalar bilan olib boriladigan individual va kichik guruhlardagi logopedik ish dasturlarining asosiy bo’limlari va mazmuni | Ma’ruza | Ko’rgazmali buklet tayyorlash. | 26-hafta | 2 |
| 27. | Alaliyali bolalar bilan yakka mashgulotlar uchun reja-matn tuzish | Ma’ruza | Tasvirli manbalar tayyorlash va taqdimot yaratish. | 27-hafta | 2 |
| 28. | FFN, asosida disgrafiya va dislektsiyaga ega bolalar bilan ishlashda individual va kichik guruhlar uchun dasturlar modelini yaratish | Ma’ruza | Pedagogik texnologiyalar tahlil qilish, mavzuga doir referat tayyorlash. | 28-hafta | 2 |
| 29. | O’qish buzilishlariga ega bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarni tashkil etish | Ma’ruza | Mavzu bo’yicha taqdimot yaratish. Adabiyotlar tahlilini amalga oshirish va bukletlar tayyorlash. | 29-hafta | 2 |
| 30. | Yozish buzilishlariga ega bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarni tashkil etish | Ma’ruza | Taqdimot yaratish. Mavzuga doir referat tayyorlash. | 30-hafta | 2 |
| | **Jami:** | | | | 60 |

"Logopedik mashg’ulotlarni rejalashtirish va tashkil etish" fani bo’yicha talabaning mustaqil ta’limi shu fanni o’rganish jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, axborot resurslari bilan to’la ta’minlangan bo’lishi, HEMIS tizimiga resurslar joylangan bo‘lishi lozim.

"Logopedik mashg’ulotlarni rejalashtirish va tashkil etish" fanidan mustaqil ish majmuasi 7-semestrdagi barcha mavzularini qamrab olgan va 30 ta mavzu ko’rinishida shakllantirilgan.

## 9. Mustaqil ta'limni baholash.

Kredit modul tizimi bo‘yicha oraliq nazoratdan yetarli baho ololmagan talaba yakuniy nazoratga kira olmaydi. Shuning uchun talabani baholashda mustaqil ta’lim topshiriqlarini xisobga olishda ikki xil yondashiladi:

1. Oraliq nazoratni o’tkazish rejalashtirilganda, birinchi oraliq nazorat savollari dars davomida o‘tilgan mashg‘ulotlar bo‘yicha, ikkinchisi mustaqil ta’lim topshiriqlari asosida tashkil etiladi.

2. Yakuniy nazorat savollarini tuzayotganda mustaqil ta’limda berilgan topshiriqlardan foydalaniladi. Bunda, yakuniy yozma ish variantida 5 ta savol rejalashtirilgan bo‘lib, shundan 3 tasi dars davomida o‘tilgan mashg‘ulotlar bo‘yicha, 2 tasi mustaqil ta’lim topshiriqlari asosida tuziladi.

## 10. "Logopedik mashg’ulotlarni rejalashtirish va tashkil etish " fanidan mustaqil ishlarni bajarish bo’yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar va axborot manbalari

| **Asosiy va qo’shimcha adabiyotlar, axborot manbalari** | |
|---|---|
| **Asosiy adabiyotlar** | |
| 1. | Ayupova M.Y. Logopediya, darslik, O’zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. T:2018y |
| 2. | Muminova L., Ayupova M.Logopediya. Darslik, T.: O’qituvchi 2014 y. |
| 3. | Shomaxmudova R.Sh., Mo’minova L.R. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. O’quv qo’llanma, O’qituvchi. T.:2014 y. |
| 4. | M.U. Xamidova. Maxsus pedagogika. O’quv qo’llanma, Fan va texnologiya T.: 2018 y. |
| **Axborot manbalari** | |
| | 1. www.ziyonet.net<br>2. http://www.ziyonet.uz<br>3. http://www.nuu.uz<br>4. www.ziyouz.com |

**Mundarija**


| | | |
|---|---|---|
| 1. | Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni ........................... | 4 |
| 2. | Mustaqil ta’limning asosiy vazifalari...................................................... | 5 |
| 3. | Mustaqil ishlarni nazorat qilish va topshiriqlarni qabul qilish shakllari.... | 5 |
| 4. | Talaba mustaqil ishini baholashda amal qilinadigan mezonlar ................ | 6 |
| 5 | Talaba mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda e`tiborga olinishi lozim bo’lgan jihatlar………………………………………... | 6 |
| 6. | Talaba mustaqil ishni bajarish davomida egallaydigan ko’nikmalar…... | 7 |
| 7. | Mustaqil ta’limni amalga oshirish bo’yicha fan o’qituvchisining vazifalari........................................................................................... | 7 |
| 8. | Fan bo’yicha talabaning mustaqil ta’limini tashkil etish ........................ | 8 |
| 9. | Mustaqil ta’limni baholash bo‘yicha tavsiyalar ..................................... | 10 |
| 10. | Mustaqil ishlarni bajarish bo’yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar va axborot manbalari ........................................................................... | 12 |